

## PRESS-RELIZ

Joriy yilning 22-dekabr kuni Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Toshkent shahrida joylashgan Shayxontohur tuman ixtisoslashtirilgan mакtabida koreys tili bo‘yicha II Respublika olimpiadasining yakuniy bosqichi hamda olimpiada g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirning ochilish marosimida Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi mas‘ullari, Koreya Respublikasining O‘zbekistonдagi muxtor elchisi, Koreya Respublikasining O‘zbekistonдagi elchixonasi huzuridagi Koreys tili ta’lim markazi vakillari, olimpiadaning hududiy bosqichlaridan saralangan o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ommaviy axborot vositalari ishtirok etdi.

Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasida barcha sohalar kabi ta’lim yo‘nalishida ham hamkorlik aloqalari tobora rivojlanib bormoqda. Xususan, joriy yilda Agentlik va Koreya ta’lim markazi hamkorligida "Incheon ta’lim festivali", "Tabiiy fanlar festivali", koreys tili bo‘yicha Respublika olimpiadalari kabi qator loyihalar amalga oshirildi.

Ma’lumot o‘rnida, koreys tili bo‘yicha II Respublika olimpiadasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash maqsadida Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tomonidan Koreya Respublikasining O‘zbekistonдagi elchixonasi huzuridagi Koreys tili ta’lim markazi bilan hamkorlikda **Respublika umumta’lim maktablarining 9-10-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida 2 bosqichda tashkil etildi.**

**1-bosqich (hududiy) da 1272 nafar o‘quvchi ishtirok etib**, koreys tilida tinglash va o‘qish mahoratlarini sinovdan o‘tkazdi. Unda viloyatlardan 10 nafardan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Toshkent shahridan 15 nafardan eng yuqori natija ko‘rsatgan jami **150 nafar o‘quvchi Respublika bosqichiga yo‘llanma oldi**.

**2-bosqich (Respublika) da viloyatlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Toshkent shahridan 15 nafardan saralangan jami 150 nafar o‘quvchi ishtirok etib**, koreys tilida tinglab tushunish, yozish ko‘nikmalari, o‘qish ko‘nikmalari va grammatika shartlari asosida yozma va test sinovlaridan o‘tdi.

Respublika bosqiching yakuniy natijalarga ko‘ra, **9-10-11-sinflar kesimida 3 nafar g‘olib va 7 nafar sovrindor aniqlandi**.

Olimpiadaning taqdirlash marosimida g‘olib va sovrindorlarga Koreya Respublikasiga ta’lim sayohati yo‘llanmasi topshirildi.